
“Ombudsman maktabi” loyihasi doirasidagi navbatdagi tadbir aholi bandligini ta’minlash va yoshlarni qo’llab-quvvatlash, ularning qonuniy xuquq va manfaatlarini ximoya qilish borasidagi islohotlarga bag’ishlandi

Xabaringiz bor, joriy yilda Oliy Majlis Inson huquqlari bo’yicha vakili (ombudsman)ning aholini huquqiy xabardorligini oshirishga qaratilgan “Ombudsman maktabi” loyihasiga start berilgan edi. Ushbu loyihaning birinchi o’quv mashg’uloti Buxoroda o’tkazilgan.

2022 yilning 29 iyul kuni “Ombudsman maktabi” loyixasining navbatdagi tadbiri Farg’ona viloyati, Farg’ona shahar Band bo’lmagan axoliga xizmat ko’rsatuvchi “Ishga marxamat” monomarkazida o’tkazildi.

Mazkur uchrashuv mamlakatimizda ijtimoiy sohada olib borilayotgan tub islohotlar, xususan aholi bandligini ta’minlash, yoshlarni qo’llab-quvvatlash, ularning qonuniy xuquq va manfaatlarini ximoya qilish borasida aholiga yaratilayotgan sharoitlar, imkoniyatlar va imtiyozlar to’g’risida fuqarolarning xabardorligini oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

"Ombudsman maktabi" tadbiriga Farg’ona shaxrida yashovchi “O’rmonchilar”, “Gulzor” “Shodiyona” va boshqa MFY faollari va yoshlari jalb etildi.

Aholining huquqiy xabardorligini oshirishga qaratilgan ushbu tadbir bandlik va yoshlarni qo’llab-quvvatlash, ularning qonuniy xuquq va manfaatlarini ximoya qilish, nogironligi bulgan shaxslarga yaratilayotgan sharoitlar masalalariga bag’ishlandi. Unda Yoshlar agentligining Farg’ona viloyati boshqarmasi boshlig’i Muxammadamin G’aniev, viloyat bandlik Bosh boshqarmasi boshlig’i v.b. S.Davlatov, bo’lim boshlig’i Muxammadbobur Mo’sajonovlar ushbu sohalarida amalga oshirilgan islohotlar, aholiga yaratilgan qulayliklar va imtiyozlar hamda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni haqida ma’lumot berdilar. Shuningdek Qo’qon shahar nogironlar jamiyati raisi F.Tilavoldiev o’zining ma’ruzasida nogironligi bulgan shaxslarga yaratilgan sharoitlar, imtiyozlar bilan birgalikda yuzaga kelayotgan muammolarga xam to’xtalib o’tdi.

Tadbirda so’z olgan, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo’yicha vakili (Ombudsman)ning Farg’ona viloyati mintaqaviy vakili Alisher Kamilov “Ombudsman maktabi” doirasida o’tkazilayotgan tadbirda tegishli davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va NNT vakillari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari jalb etilganligini qayd etdi.

Shundan so’ng, Ombudsmanning Farg’ona viloyatidagi mintaqaviy vakili Alisher Kamilov fuqarolarga murojaatlar bilan ishlash, fuqarolarni, ayniqsa nogironligi bo’lgan shaxslarni xuquqlarini ximoya qilish borasida olib borilgan ishlar, xarakati cheklangan shaxslar saqlanayotgan muassasalarga amalga oshirayotgan monitoring tashriflari haqida ma’lumot berdi. Shuningdek, Ombudsman mintaqaviy vakiliga murojaat qilish usullariga ham to’xtaldi. O’zaro savol javob va erkin muloqot ruhida o’tgan tadbirda navbatdagi Ombudsman maktablarida ko’tarilishi zarur bo’lgan sohalar bo’yicha ham takliflar olindi. Tadbirda so’z olgan “O’rmonchilar”, “Gulzor” maxalla fuqarolar yig’ini raislari Z.Ziyaeva va A.Madoripovlar ham inson huquqlarini ta’minlashda aholining huquqiy xabardorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhim ekanligiga e’tibor qaratdilar. Shuningdek, bu kabi tadbirlarni o’tkazishda Ombudsman instituti mintaqaviy vakilligi bilan hamkorlikda ishlashga tayyor ekanliklarini bildirdilar. Tadbirda Farg’ona viloyati xokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha o’rinbosari Fayzullajon Sa’dullaevich Qosimov ishtirok etdi va nutq so’ztladi.

- O’zaro muloqotlar davomida tanlangan sohalar va masalalar bo’yicha faoliyat yuritadigan vakolatli davlat organlariga asoslantirilgan murojaatlarni kiritish va ularni ko’rib chiqish tartibi bo’yicha aholining huquqiy madaniyati oshiriladi. Bu esa fuqarolarga amaliy va manzilli yordam ko’rsatishda davlat organi va aholi o’rtasida konstruktiv aloqalarning o’rnatilishiga xizmat qiladi.

Ombudsman maktablari Oliy Majlisning Inson huquqlari bo’yicha vakili va uning hududlardagi mintaqaviy vakillari tomonidan muntazam ravishda respublika bo’ylab tashkil etiladi, imkon doirasida har bir mahallaga kirib, fuqarolar taklif hamda muammolari o’rganiladi va tahlil qilinadi.

2022-08-12 18:01:33